

HARBIY SAN'ATNING TARIXIY SHAKLANISHI VA KLASSIK NAZARIYALARI

Xodjamkulov Asliddin Najmitdinovich - podpolkovnik

Jamoat xavfsizligi universiteti tinglovchisi

Annotatsiya: Harbiy san'at inson jamiyatining eng qadimiy va muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Uning shakllanishi insonning jang qilish qobiliyati, mudofaa va hujum qilishga oid bilimlari, turli asbob-uskunalarni ishlab chiqarish va qo'llash bilan bog'liq bo'lib, tarixiy jarayonda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlaridan katta ta'sir olgan holda rivojlangan. Qadimgi davrlardan to hozirgi zamonaviy vaqtlargacha harbiy san'at o'zgarib, to'xtovsiz rivojlanib borgan. Ushbu jarayonda uning nazariy asoslari ham mukammallashgan va bu jarayonda klassik harbiy nazariyalar paydo bo'lgan.

Klassik harbiy nazariyalar strategik, taktik va operativ jihatdan harbiy faoliyat olib borishni tartibga soluvchi qoidalar va konsepsiyalar tizimini tashkil etadi. Ular harbiy operatsiyalarni(jangovar harakatlarni) rejalashtirish, jang maydonida qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash va armiyani boshqarishga oid tamoyillarni o'z ichiga oladi. Leonardo da Vinchi, Karl fon Klauzevis, Sun Tzu kabi atoqli harbiy mutaxassislar va mualliflar ushbu nazariyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaganlar.

Harbiy san'atning tarixiy shakllanishi va klassik nazariyalarining o'rganilishi nafaqat harbiy sohada, balki siyosatshunoslik, tarix, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyalar orqali zamonaviy harbiy va strategik muammolarni tushunish, yangi taktikalar va strategiyalarni ishlab chiqish va qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: Harbiy taktika, operativ(tezkorlik) va strategiya harbiy operatsiyalar, mudofaa va hujum.

Аннотация: Военное искусство является одной из древнейших и ключевых областей человеческой деятельности. Его формирование связано с развитием способностей человека к ведению боевых действий, защитным и наступательным умениям, а также с созданием и применением различных орудий и вооружения. Этот процесс значительно зависел от политических, экономических и культурных условий общества на протяжении всей истории. С древних времён до современности военное искусство претерпевало изменения и развитие. В ходе этого процесса сформировались и теоретические основы военного дела, появились классические военные теории.

Классические военные теории представляют собой систему правил и концепсий, регулирующих стратегическую, тактическую и оперативную

деятельность в военной сфере. Они охватывают принципы планирования военных операций, принятия решений на поле боя, распределения ресурсов и управления армией. Знаменитые военные мыслители и авторы, такие как Леонардо да Винчи, Карл фон Клаузевиц, Сун цзы, сыграли ключевую роль в формировании этих теорий.

Изучение исторического формирования военного искусства и классических теорий важно не только для военной сферы, но и для политологии, истории, экономики и международных отношений. Эти теории помогают лучше понять современные военные и стратегические проблемы, а также разрабатывать новые тактики и стратегии.

Ключевые слова: Военная тактика, оперативность и стратегия, военные операции, оборона и наступление.

Abstract: Military art is one of the oldest and most crucial spheres of human activity. Its formation is closely linked to the development of human combat skills, defensive and offensive capabilities, as well as the invention and use of various weapons and tools. This process has been heavily influenced by the political, economic, and cultural conditions of societies throughout history. From ancient times to the present day, military art has evolved and developed significantly. During this evolution, its theoretical foundations were established, leading to the emergence of classical military theories.

Classical military theories constitute a system of rules and concepts that govern strategic, tactical, and operational aspects of military activity. They include principles for planning military operations, making decisions on the battlefield, allocating resources, and managing armies. Renowned military thinkers and authors such as Leonardo da Vinci, Carl von Clausewitz, and Sun Tzu played a vital role in shaping these theories.

Studying the historical formation of military art and its classical theories is important not only in the military field but also in political science, history, economics, and international relations. These theories provide valuable insights into contemporary military and strategic challenges and facilitate the development of new tactics and strategies.

Keywords: Military tactics, operational readiness and strategy, military operations, defense and offense.

KIRISH

Harbiy san'at – bu jang harakatlarini olib borishning nazariy va amaliy asoslarini o'z ichiga olgan, murakkab va ko'p qirrali fan hisoblanadi. Harbiy san'atni amalga oshirish uchun bir necha harbiy fanlarni bir - biriga integratsiyalashgan holda qo'llash orqali erishiladi.

Uning tarixiy shakllanishi insoniyat sivilizatsiyasi rivoji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir xalqning tarixiy tajribasi, geosiyosiy sharoiti ya’ni joylashgan hududi, madaniy qadriyatlari va harbiy an’analariga muvofiq tarzda shakllangan.

O‘zbekiston hududi qadimdan strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab yirik harbiy to‘qnashuvlar, yurishlar va davlatchilik tizimlarining markazi sifatida namoyon bo‘lgan. Ahamoniylar, Iskandar Zulqarnayn, Qangyuy, Kushon, Turon va Sog‘diana kabi davlatlardan tortib, Temuriylar, Shayboniylar va Buxoro amirligi davrigacha bo‘lgan tarixiy davrlarda bu hududda harbiy san’atning rivojlanishida o‘ziga xos modellar yuzaga kelgan.

Amir Temurning harbiy islohotlari va uning "Temur tuzuklari"da aks etgan nazariy qarashlar harbiy san’atning klassik namunasi sifatida alohida o‘rin tutadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida milliy armiyasini shakllantirish va uni zamonaviy talablarga mos ravishda isloh etish jarayonida tarixiy merosga tayanadi. Harbiy san’atning ilmiy-amaliy tadqiqoti nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki mamlakat milliy xavfsizligi, harbiy strategiyasi va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada harbiy san’atning tarixiy shakllanish bosqichlari, uning klassik nazariyasi va ularning O‘zbekiston harbiy merosi bilan bog‘liq jihatlari tahlil etiladi. Maqsad – harbiy san’atning ilmiy asoslarini ochib berish, uning milliy modelini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritish va zamonaviy harbiy-strategik fikrlashdagi o‘rnini belgilab berishdan iborat.

ASOSIY QISM

1. Harbiy san’atning ilk tarixiy shakllanishi

Harbiy san’atning tarixiy shakllanishi insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Urushlar va harbiy to‘qnashuvlar odamzotning hayotida muhim rol o‘ynagan, bu esa harbiy bilim va amaliy qo‘llash tajribalarning tizimlashuviga olib kelgan.

1.1. Qadimgi Sharq davlatlarida harbiy san’at

Qadimgi Misr, Bobil kabi ilk davlatlar harbiy tashkilot va strategiyaning eng avvalgi shakllarini yaratgan. Masalan, Misrda firavnlarni yuksak darajada markazlashgan armiyani shakllantirgan va Nil deltasidagi harbiy himoya tizimini mukammal darajada yo‘lga qo‘yganlar. Ular qurollanishda aravalar, nayza, qilich va kamondan keng foydalanganlar.

Qadimgi davrda armiyaning boshqaruvi iyerarxik tizim asosida amalga oshirilgan. Bu davrda urush asosan hududiy nizolar yoki serhosil yerlar uchun kurash shaklida bo‘lgan. Yozilgan tarixiy bitiklarda harbiy yurishlar, qal’alar qurilishi va armiyani shakllantirish xususida ma’lumotlar keltirilgan.

1.2. Qadimgi Xitoyda harbiy san’ati va Sun szi.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Xitoyda yashagan **Sun szi** tomonidan yozilgan

“*Urush san’ati*” nomli asari harbiy san’at nazariyasining ilk mukammal namunasi hisoblanadi. Asar 13 bobdan iborat bo‘lib, harbiy strategiya va taktika, josuslik, kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash, dushmanni aldash va geografik sharoitdan foydalanish kabi mavzular qamrab olingan[3].

Sun Szi ta’limotiga ko‘ra quyidagi qarashlar ilgari surilgan[3].:

- G‘alaba qurol kuchi bilan emas, aql bilan erishiladi.
- Dushmanni urushsiz yengish - eng oliy muvaffaqiyatdir.
- Dushmanni yengish uchun qudratli armiya emas, yaxshi tayyorlangan, intizomli va manevrli armiya muhimdir deb muloxazali fikr va g‘oyalarni qoldirgan.

Sun szi asarlari keyinchalik butun dunyo harbiy ta’limotlariga ta’sir ko‘rsatgan va qo‘llay boshlangan va hozirda Chin o‘lkasida aynan shu ta’limotga asoslangan harbiy siyosat yuritib kelinmoqda.

1.3. Qadimgi Yunon va Rim sivilizatsiyasida harbiy san’at.

Qadimgi Yunon davlatida harbiy san’at falsafa va jismoniy tarbiya(mashq) bilan birlashgan holda rivojlangan chunki muvaffaqiyatga erishish uchun bir necha fanlarni integratsiya qilgan holda qo‘llash muxim xisoblangan. Afina va Spartada harbiy xizmat - fuqarolik burchi sifatida qaralgan. Ayniqsa Spartada bolalar 7 yoshdan harbiy tayyorgarlikka jalb etilar, bu esa ularning yuksak jismoniy va ma’naviy tayyorgarligiga olib kelardi[2]..

Qadimgi Rim esa harbiy san’atni tashkilotchilik va qonuniy asoslarga tayanadigan darajaga olib chiqqan. Rim legionlari katta tartib, intizom va tezkor manevrlar bilan ajralib turardi.

Rim armiyasida quyidagilar asosiy sifatlar etib belgilangan:

- qat’iy harbiy intizom;
- mukammal logistika, manyovrchanlik;
- qo‘mondonlik boshqaruv va razvetka tizimi,
- injenerlik vositalaridan (qal’a qurilishi, ko‘priklar) foydalanish mavjud edi.

Yuliy sezarning “*Galliya urushlari*” haqidagi asari, Rim armiyasining strategiya va taktik muvaffaqiyatlarini yorituvchi muhim manba hisoblanadi.

2. Klassik harbiy nazariyalar.

Harbiy san’atning rivojlanishi davomida uning nazariy asoslari ham shakllanib borgan. Ushbu nazariyalar orqali urushni faqat zo‘ravonlik, kuch ishlatish sifatida emas, balki aqliy, siyosiy va strategik jarayon sifatida tahlil qilish imkoni paydo bo‘lgan.

2.1. Sun szi (M.a. VI–V asr, Xitoy) [3].

Sun szi harbiy strategiyada psixologik ustunlik, josuslik va dushmanning zaif nuqtalaridan foydalanishni ustuvor hisoblagan. Uning nazariyasida urushda g‘alaba qilish uchun quyidagilar muhim:

- dushmanni aniq tahlil qilish;
- harbiy yurishlardan oldin iqtisodiy va siyosiy tayyorgarlik;
- hudud sharoitlaridan maksimal darajada foydalanish;

2.2. Klauzevis (1780–1831, Prussiya)

Karl fon Klauzevis tomonidan yaratilgan "*Urush to'g'risida*" asari harbiy fanni falsafiy va siyosiy asoslar bilan boyitdi.

Uning fikricha: "Urush — bu siyosatning boshqa vositalar orqali davomidir."

Klauzevis urushni inson irodasi, kaos, risk va omad bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa deb qaradi. U harbiy qaror qabul qilishda armiya, davlat va xalq o'rtasidagi muvozanatni saqlashni muhim deb hisoblagan[3].

2.3. Antuan-Anri Jomini (1779–1869, Fransiya) [6], [7].

Jomini harbiy san'atni aniq qoidalar va formulalarga asoslantirishga uringan.

Uning asosiy g'oyalari:

- dushmanning markaziga va muhim nuqtalariga zarba berish;
- qo'shinlarni manevrli ravishda joylashtirish;
- geografiyadan joy hududdan foydalanish;

Jominining harbiy qarashlari Klauzevisdan farqli ravishda urushni ratsional va aniq hisob-kitob asosidagi fan sifatida ko'rgan[2].

3. Harbiy san'atdagi evolyusiya va zamonaviy tendensiyalar

3.1. Industrial davr va keskin harbiy inqilob.

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida sanoat inqilobi harbiy san'atga katta ta'sir ko'rsatdi. Temir yo'llar, telegraf, o'q otar va uzoq masofaga otuvchi artilleriya qurollari strategiya va taktikani tubdan o'zgartirdi. Armiyalar endilikda katta tarkibda harakatlana oladigan va uzoq muddat davomida jang qila oladigan tuzilmalarga aylandi [6,7].

3.2. XX asr — jahon urushlari va yadroviy strategiya.

Ikki jahon urushi davrida harbiy strategiya:

• **total urush** - faqat armiya emas, balki butun jamiyat resurslari urushga yo'naltirilgan va faqat g'alaba uchun safarbar etilgan.

• Mobilizatsiya qilish, tank va aviatsiya strategiyasini qo'llash va aholiga bosim o'tkazish kabi usullardan foydalanilgan.

• AQSh tomonidan 1945 yilda yadroviy bomba qo'llanilishi global harbiy san'atda "**tajovuzni tiyish, ushlab turish**" strategiyasiga asos bo'ldi.

3.3. Zamonaviy harbiy san'at — gibril va kiber urushlar

21-asrda harbiy san'at yangi bosqichga chiqdi:

• **gibril urushlar** — an'anaviy harbiy harakatlar, siyosiy, axborot va iqtisodiy bosim bilan birgalikda olib boriladi.

• **kiber urushlar** - raqib davlat yoki tashkilotning axborot tizimlari, infratuzilmasi, iqtisodiyoti yoki harbiy salohiyatiga zarar yetkazish maqsadida amalga

oshiriladigan rejalashtirilgan va maqsadli kiberhujumlar yig'indisi sifatida olib boradilar.

Klassik harbiy nazariyaning asosiy tamoyillari.

Klassik harbiy nazariya XVIII–XIX asrlarda jadal rivojlandi. Bu davrda Klauzevisning "**Urush haqida**" (Vom Kriege) asari harbiy nazariyada burilish yasadi. U urushni "siyosatning boshqa vositalar bilan davomi" sifatida ta'rifladi va urushni yagona omilga emas, balki iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillardan kelib chiquvchi murakkab jarayon sifatida ko'rdi.

Klauzevis nazariyasidagi asosiy tushunchalar:

- **urush va siyosat aloqasi;**
- **friksiya (muammolar) va tasodif;**
- **strategiya va taktikaning farqi;**
- **markaziy kuchga zarba berish tamoyili [1].**

Shuningdek, Antuan-Anri Jomini kabi nazariyachilar ham urushni geometriya asosida tushunishga harakat qilgan, u jangda to'g'ri chiziqlar va tezkor harakatlar muhim deb hisoblagan.

Harbiy san'at va jamiyat

Harbiy san'at faqat urushlar davrida emas, balki tinchlik paytida ham muhim ahamiyat kasb etadi. U milliy xavfsizlikni ta'minlash, davlat strategiyasini belgilash, diplomatiya va tashqi siyosat bilan bog'liq murakkab jarayonlarga daxldordir. Shu bois, harbiy san'atni umumiy strategiya va davlat boshqaruvi tizimining bir qismi sifatida ko'rish lozim.

Xulosa

• harbiy san'atning shakllanishi inson jamiyati, davlatlar qurilishi, siyosiy va texnologik o'zgarishlarga bog'liq ravishda bosqichma-bosqich sodir bo'lgan. Qadim davrdan klassik mualliflar orqali XX–XXI asrlargacha inqiloblar, yangilanishlar va transformatsiyalar kuzatilgan.

• klassik nazariyalar (Sun-Szy, Vegesiy, Jomini, Klauzevis) har xil davrlarda harbiy amaliyat va nazariyati uchun mustahkam asos bo'lgan. Ulardan zamonaviy tahdidlarga moslashtirilgan holda foydalanish mumkin.

• zamonaviy yondoshuvlar (operativ san'at, asimmetrik urush, gibridd, axborot urushlari) klassik prinsiplarning bir qismi bo'lishini, ammo ularni yangi sharoitlarda qayta talqin etish kerakligini ko'rsatmoqda.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiya:

1. Klassik nazariyalarning milliy (masalan, O'zbekiston, Markaziy Osiyo) xossalari;
2. Texnologik yangiliklar (AT, kiber urush, razvedka vositalari) siyosiy va harbiy amaliyatga ta'siri;

3. Asimmetrik tahdidlarga qarshi strategiya va taktikalarni klassik qarashlar bilan uyg'unlashtirish.

Adabiyotlar ro'yxati (taklifiy)

1. Carl von Clausewitz — *On War*
2. Antoine-Henri Jomini — *Summary of the Art of War, The Art of War*
3. Sun Tzi — *The Art of War*
4. Vegetius — *De Re Militari*
5. Milan Vego — *Operational Art: Theory and Practice*
6. "Conceptual Landmarks on the Evolution of Military Art" — Marian Hoge
7. "A History of Operational Art" — Wilson C. Blythe Jr.
8. Amir Temurning "Temur tuzuklari".
9. Hamdam Sodiqovning Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati.